



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

The key conclusions are as follows:

- Retail efficiency requires a comprehensive evaluation framework
- Statistical analysis provides valuable insights into performance dynamics
- Effective resource management is essential for improving outcomes
- Data-driven approaches enhance decision-making and competitiveness

Future research should focus on applying advanced econometric models and real-world datasets to further refine the assessment of retail efficiency.

References

1. Gujarati, D. N. (2004). Basic Econometrics (4th ed.). McGraw-Hill.
2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson.
3. OECD. (2020). Retail Trade and Digital Transformation. OECD Publishing.
4. Porter, M. E. (2008). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.
5. Wooldridge, J. M. (2015). Introductory Econometrics: A Modern Approach (5th ed.). Cengage Learning.

RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA SOLIQ NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH: PAYNET XOLIS TIZIMI MISOLIDA

Oymatova Gulnir Mirjamolovna

Guliston Davlat Universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

1989gulinur1989@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazoratini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlari Paynet Xolis platformasi misolida tahlil qilingan, xususan, platformaning fiskal nazoratni avtomatlashtirish, elektron to'lovlarni fiskallashtirish, moliyaviy operatsiyalar ustidan real vaqt rejimida monitoring olib borish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli soliq nazoratining institutsional samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, soliq nazorati, soliq ma'murchiligi, fiskal nazorat, Paynet Xolis, elektron fiskal chek, QR-kodli to'lovlar, markirovka tizimi, raqamli platforma.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimining barcha yo'nalishlariga, xususan, soliq ma'murchiligi va soliq nazorati mexanizmlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi, elektron tijorat hajmining ortishi hamda moliyaviy operatsiyalarning raqamli shaklga o'tishi an'anaviy soliq nazorati usullarining samaradorligini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bugungi kunda O'zbekistonda soliq nazoratini raqamlashtirish va soliq ma'muriyatchiligiga

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda [4].

Raqamli platformalarning fiskal nazoratdagi ahamiyati, avvalo, moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta‘minlash imkoniyati bilan izohlanadi. Bunday platformalar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar va hisob-kitoblar elektron shaklda qayd etilishi natijasida iqtisodiy faoliyat ustidan real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada yashirin aylanma mablag‘larni qisqartirish, naqd pul muomalasini nazorat qilish hamda soliq bazasini kengaytirish uchun qulay sharoit shakllanadi. Ayniqsa, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli to‘lov tizimlarining keng qo‘llanilishi fiskal nazorat samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma‘murchiligini takomillashtirish va fiskal nazorat samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy raqamli platformalarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, PQ-247-son qaror ijrosini ta‘minlash doirasida ishlab chiqilgan Xolis raqamli platformasi kichik biznes subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning moliyaviy operatsiyalarini avtomatlashtirilgan tarzda yuritishga xizmat qiluvchi muhim raqamli vositalardan biri hisoblanadi [3].



1-rasm. Paynet Xolis mobil ilovasi¹⁶


Mazkur platforma foydalanuvchilarga elektron to‘lovlarni maxsus QR-kod orqali qabul qilish, moliyaviy tushumlarni elektron shaklda qayd etish hamda fiskal hisob-kitoblarni avtomatik tarzda amalga oshirish imkonini beradi [5]. Shu jihatdan Xolis platformasi virtual onlayn kassa funksiyasini bajarib, an‘anaviy nazorat-kassa texnikalariga bo‘lgan ehtiyojni qisman kamaytiradi. Tizim orqali amalga oshirilgan har bir operatsiya real vaqt rejimida elektron bazada qayd etilishi natijasida moliyaviy oqimlar ustidan tezkor monitoring olib borish imkoniyati shakllanadi.

Platformaning muhim afzalliklaridan biri naqd va naqdsiz to‘lovlarni fiskallashtirish mexanizmlarining avtomatlashtirilganligidir. Naqdsiz to‘lovlar tizimda avtomatik aks ettirilsa, naqd pul shaklida amalga oshirilgan operatsiyalar ham elektron chek va virtual fiskal yozuvlar orqali tizimga kiritiladi. Buning natijasida tadbirkorlik subyektlarining real tushumlarini hisobga olish, yashirin aylanmalarni qisqartirish

¹⁶ <https://paynet.uz/ru/news/kompaniia-paynet-predstavliaet-novyi-servis-xolis> saytidan olingan.

hamda soliqlardan bo'yin tovlash xavfini kamaytirish imkoniyati ortadi. Shu bilan birga, platforma orqali aylanmadan olinadigan soliqning tegishli qismi avtomatik tarzda budjetga yo'naltirilishi soliq ma'murchiligini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Raqamli soliq platformalarining afzalliklari



2-rasm. Raqamli soliq platformalarining afzalliklari¹⁷

Xolis platformasida elektron hamyonning hisob-kitob vositasi sifatida faoliyat yuritishi ham uning amaliy ahamiyatini oshiradi. Foydalanuvchilar mablag'larni bank kartalariga o'tkazish, naqdlashtirish, kontragentlarga to'lovlarni amalga oshirish hamda boshqa elektron hamyonlarga pul o'tkazmalarini bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa platforma moliyaviy operatsiyalarni markazlashtirilgan tarzda boshqarish, fiskal nazoratni kuchaytirish va davlat hamda soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni yanada shaffof shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks raqamli tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Platformaning yana bir muhim funksional jihati naqd pul shaklida amalga oshiriladigan operatsiyalarni fiskallashtirish imkoniyatidir. Xususan, QR-kod orqali amalga oshirilgan naqdsiz to'lovlarda elektron fiskal chek tizim tomonidan avtomatik ravishda shakllantiriladi. Naqd pul asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarda esa foydalanuvchi ilovaga to'lov summasini kiritib, operatsiyani tasdiqlaydi. Shundan so'ng tizim avtomatik tarzda elektron fiskal chekni shakllantirib, uni mijozga SMS yoki messengerlar orqali yuborish imkonini yaratadi.

Mazkur mexanizm naqd pul aylanmasini ham raqamli fiskal nazorat tizimiga integratsiyalash imkonini beradi. Bunda platformadagi elektron hamyonda tegishli soliq summasini qoplash uchun yetarli mablag' mavjud bo'lishi talab etiladi, natijada aylanmadan olinadigan soliqning belgilangan qismi avtomatik tarzda hisobdan

¹⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan

chiqariladi. Shu tariqa naqd pul operatsiyalarining elektron qayd etilishi tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirish, norasmiy aylanmalarni qisqartirish hamda fiskal intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Xolis platformasi faoliyatida ayrim tashkiliy va texnik jihatdan takomillashtirilishi zarur bo'lgan masalalar ham mavjud. Xususan, platformada tovar hisobi asosan yiriklashtirilgan MXIK kodlari asosida yuritilishi kichik biznes subyektlari uchun hisob-kitob jarayonini soddalashtirsa-da, ayrim hollarda mahsulotlarning batafsil nomenklatura bo'yicha hisobini yuritish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Amaldagi tartibga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat turi bilan bog'liq umumiy MXIK kodidan foydalanadi va mazkur kod platforma tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi. Natijada soliq nazorati nuqtai nazaridan umumiy aylanma hisobga olinayotgan bo'lsa-da, mahsulotlarning individual harakati va ombor hisobining raqamlashtirilishi yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Bundan tashqari, majburiy markirovkalangan mahsulotlarni platforma orqali realizatsiya qilish mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi ham muhim amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, maishiy texnika, elektron qurilmalar va ayrim turdagi iste'mol mahsulotlarini realizatsiya qilishda markirovka tizimlari bilan integratsiyalashgan nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur yo'nalishdagi funksional imkoniyatlarni rivojlantirish platformaning fiskal nazorat samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi.

Platformada tovar va xizmatlarni qaytarish bilan bog'liq operatsiyalarni huquqiy hamda texnik jihatdan tartibga solish masalalari ham qo'shimcha takomillashtirishni talab etadi. Xususan, qaytarilgan operatsiyalarning soliq hisobotlarida aks ettirilishi, avval ushlab qolingan soliq summalarini qayta hisoblash mexanizmlari hamda elektron fiskal cheklarni bekor qilish tartiblarini yanada aniq huquqiy reglamentatsiya qilish zarurati mavjud. Shu sababli kelgusida platformaning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, markirovka tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish hamda qaytarish operatsiyalarining avtomatlashtirilgan mexanizmlarini takomillashtirish raqamli soliq nazoratining institutsional samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, soliq nazoratini samarali olib borish maqsadida ushbu ilovani yanada takomillashtirish va bunda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- tovar aylanmasidagi shaffoflikni ta'minlash uchun mahsulotlarning individual harakati va ombor hisobining raqamlashtirilishini platformaga integratsiyalash lozim;
- tadbirkor va xaridorga (yoki mijozga) qulaylik yaratish maqsadida qaytarilgan operatsiyalar bo'yicha soliq summalarini qayta hisoblash va elektron fiskal cheklarni bekor qilish tartiblarini soddalashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019: <https://lex.uz/docs/4763531>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-3271159>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4415356>

5. Xolis platformasi orqali ishlovchilarga kassa apparati kerakmi https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text212890_xolis_platformasi_orqali_ishlovchilarga_kassa_apparati_kerakmi

PEDAGOG KADRLARNI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASH VA AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLASHNING METODIK YONDASHUVLARI

Alibayev Sobir Xolbayevich
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi pedagog faoliyatining mazmuni, shakli va metodlariga yangi talablarni qo'yimoqda. Shu sababli pedagog kadrlarni raqamli ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli ta'lim transformatsiyasi ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tizimli qo'llash, ta'lim subyektlari faoliyatini modernizatsiya qilish hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratishni nazarda tutadi. Mazkur jarayon pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni, yangi metodik yondashuvlarni qo'llashni va ta'lim jarayonini raqamli muhit asosida loyihalashni talab qiladi [2].

Raqamli ta'lim muhiti ochiq axborot resurslari, elektron platformalar, ta'limni boshqarish tizimlari va kommunikatsion vositalarning integratsiyalashgan tizimi sifatida tavsiflanadi. Raqamli ta'lim muhiti tarkibiga elektron kutubxonalar, o'quv platformalari, monitoring va nazorat vositalari, virtual laboratoriyalar hamda masofaviy kommunikatsiya tizimlari kiradi. Ushbu komponentlar ta'lim sifatini oshirish, individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish va o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning individual xususiyatlarini tushunish va raqamli ta'lim muhiti sharoitida ularni hisobga olish uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Klassik ta'lim sxemasida murakkab o'zaro ta'sir bir nechta darajada sodir bo'ladi: o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikda bilimlar uzatiladi; talabalar o'rtasidagi kommunikatsiya bilim va tajriba almashishni osonlashtiradi; shaxsiy munosabatlar o'qituvchi-talaba juftligida va o'quv guruhidagi o'zaro munosabatlarda shakllanadi.